

## JAMIYATDA OILA FARZAND TARBIYASINING ASOSIY BO'G'INI

*Eshmurodov Nabillo Ibodulla o'g'li*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti*

*Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasida o'qituvchisi*

*G-mail: [nabilloeshmurodov31@gmail.com](mailto:nabilloeshmurodov31@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola oilada farzand tarbiyasida yuzaga keladigan muammolarni oldini olish mavzusida davlat kelajagining ustuvor yo'nalishi sifatida yondashilgan bo'lib, farzand tarbiyasi muammosi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Farzand tarbiyasi nafaqat bugunimiz balki ertamiz hamdir, va tahlilda shu mavzu yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yoshlar farzand, yosh oilalar, farzand tarbiyasi, oilaga oid kodeks va qonunlar, diniy va dunyoviy qarashlar, mahalla.

## СЕМЬЯ В ОБЩЕСТВЕ-ГЛАВНОЕ ЗВЕНО ВОСПИТАНИЯ ДЕТЕЙ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тема профилактики проблем, возникающих при воспитании детей в семье, в качестве приоритетного направления будущего государства, проблема воспитания детей является одной из самых актуальных на сегодняшний день. Воспитание детей-это не только наше сегодня, но и завтра, и эта тема освещается в анализе.

**Ключевые слова:** молодежь ребенок, молодые семьи, воспитание детей, Семейный кодекс и законы, религиозные и светские взгляды, соседство.

THE FAMILY IN SOCIETY IS THE MAIN LINK IN THE  
UPBRINGING OF CHILDREN

**Abstract:** This article discusses the topic of prevention of problems arising during the upbringing of children in the family as a priority area of the future state, the problem of child rearing is one of the most urgent today. Parenting is not only ours today, but also tomorrow, and this topic is covered in the analysis.

**Keywords:** youth child, young families, child rearing, family-specific code and laws, religious and secular views, neighborhood.

*“Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkazganlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.*

*Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlari rag'batlantiriladi”.*

*O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-modda*

Mamlakatimizda bugungi kunda oiladagi konflikt holatlar, ba'zi muammolar, farzand tarbiyasida yechim toppish qiyin bo'lgan ijtimoiy, psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Farzand tarbiyasidagi muammolarning kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri bu ota-onalarning o'z farzandlari tarbiyasiga, yurish-turishiga loqaydligidir. Bu esa hozirgi vaqtda farzand tarbiyasi masalasi zaminida yuzaga keladigan noxush hodisalar, har xil asab buzilishlar kasalliklarining kelib chiqishi, har xil jinoyatchilar, jinoyatchiliklar, qotilliklar, o'z joniga qasd qilish (suisit), har xil terroristik jamoalarga qo'shilib ketish, xech kimni xurmat qilmaslik, dunyo qarashi tor, psixologik travmalar bilan voyaga yetgan va o'ziga ishonchi past farzandlar shu kabi oilalarga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham nafaqat ota-onalar balki faoliyati bevosita farzand tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan mutassaddi xodimlar, mahalla, oila psixologlari kata yoshdagilar ham hozirgi zamo oilasining ijtimoiy psixologik xususiyatlari, ota-ona va farzand nizolari, oilaviy nizolar psixologiyasi xaqida tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Farzand tarbiyasidagi muammolarning kelib chiqishiga ko'pincha ota-onalarning e'tiborsizligi sabab bo'ladi. Bularni bartaraf etish uchun ota-onalarimiz quyidagi omillarga amal qilishlari lozimdir.

**Axloqiy va ijtimoiy.** Bu yerda ota-onaning ta'limi, ijtimoiy turmush darajasi muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda ota-onalarimiz diniy bilimlarga ham yetarli darajada ega bo'lishlari shartdir. Dinimizda va davlatimizda ham muqaddas deb xisoblangan "Nikoh" tushunchasi, uning mevasi bo'lgan farzandlarni komil inson qilib tarbiyalash har bir ota-onaning asosiy vazifasidir va buni hech bir ota-ona yoddan chiqarmasligi darkor. Oilada ota-onalar diniy va dunyoviy bilimlarga yetarlicha ega bo'lmasalar ham alohida farzand tarbiyasining buzilishiga kata ta'sir qiladi.

**Motivatsion:** Ota-ona mehr-muhabbatga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, farzandlar tarbiyasiga va ularni o'ziga to'q inson qilishga, mustaqil bo'lishga, dunyoqarashi keng farzand qilib yetishishiga tayyor bo'lishlari kerak.

**Psixologik:** Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkazish davomida konflikt vaziyatlarga to'g'ri yondoshish, oilani mustahkamlash va farzandlarni rag'batlantirish kabi fazilatlar va xatti-harakatlarning mavjudligi.

**Pedagogik.** Oilaviy hayotning turli sohasida ma'lum bilimlarning mavjudligi va bu bilimlarni qo'llashga tayyorlik. Birorta oila yo'qki, unda janjal bo'lmaydi. Biroq ota-onalar nafaqat ular o'rtasida, balki ularning ichida paydo bo'ladigan har qanday nizolarni hal qilishga tayyorligi muhimdir.

Farzand tarbiyasidagi muammolar jiddiy, ayanchli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bunga sabab ota-onalarning o'z farzandlariga vaqt ajratmaganidir. Oilada ota ham ona ham teng ishlasalarda o'z farzandlari uchun vaqt ajratishlari, har kuni farzandining darsdagi faolligini, xulqini va kun davomida qilgan ishlarini so'rab ular

bilan suxbatlashishi farzandini bag'riga bosib uni yaxshi ko'rishini, farzandiga mehrini ko'rsatishi lozimdir. Mehr ko'rgan bola hech qachon yomon yo'lga kirmaydi.

Ota-onalar farzandlariga har kuni kamida bir soat vaqtini ajratishlari kerak. Chunki farzand yoshligidan mehrga, e'tiborga muhtoj bo'lmasligi, farzand mehr ko'rib mehr nuri bilan ulg'aymog'i lozim. Agar shunday bo'lmasa kun kelib mehr va muhabbat tuyg'ulari nafratga aylanishi hech gapmas. Shunday ayanchli oqibatlarini odini olish farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ularni mehr nurlari ila o'stirish vaqtida kerakli ehtiyojlarni qondirish har bir oila boshlig'ini ya'ni ota-onaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Farzandlar go'yoki yosh bir nihol kabidir. Uni navdaligidayoq parvarish qilib to'g'irlab o'sishiga e'tibor qaratishimiz darkor. Aks holda u yosh nihol ku kelib qing'ir qiyshiq hech qanday nafi yo'q o'simlik kabi bo'lib qoladi. Oila har bir mamlakatning asosiy negizi ekanligi, farzand esa uning mazmuni ekanligini inobatga olsak, tabiiyki, uning mustahkamligi jamiyatning taraqqiyoti bilan bog'liq. Butun dunyoda davom etayotgan oilaviy inqiroz O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani bugun hech kimga sir emas. Afsuski, bu masalada ota-onalari qatori farzandlarning ham ulushi ko'proq. Nega? Degan savol tug'ilishi aniq. Negaki farzandlar vaqtida to'g'ri tarbiya olmay, bee'tibor muhitda o'sganidan ko'plab qing'ir ishlar ortidan ota-onalar bir biri bilan aloqasi yomonlashadi. Natijada yuqorida qayt etilgan holatlarimiz kelib chiqadi.

Yoshlar tashkiloti va qator mutasaddilar tomonidan o'tgan davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy, namunali oilani shakllantirish, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularni o'rtasidagi ajrim holatlarining oldini olish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilayotganiga qaramay, xanuz bu sohada muammolarimiz yetarlicha.

Bunga yosh oilalar vakillarining nikohga bo'lgan mas'uliyatsizligi, farzand taqdiriga bo'lgan loqaydlik yana bir sabab bo'lmoqda.

Farzand tarbiyasidagi muammolar:

E'tiborsizlik.

Ota-onalarning konflikt holatlari.

Ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi ziddiyatlar.

Qaynona kelin o'rtasidagi nizolar.

Oilada yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizo-janjallarning sabablarini aniqlash va ularni oldini olish maqsadlarini ijobiy hal qilish uchun birinchi navbatda ularni kimlar o'rtasida yuz berayotganligini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.

Farzand tarbiyasidagi muammolarda sababchilar kimlar ekanligini quyidagicha turlarga ajratishimiz mumkin:

Er-xotin o'rtasidagi nizolar.

Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi nizolar.

Qaynona-kelin o'rtasidagi nizolar.

Oilaning asosiy bo'g'ini farzand ekan u ham ma'lum bir oilada bo'layotgan muammolarning bevosita ishtirokchisi hisoblanadi. Shunday ekan oiladagi nizolarni hal qilishda uch tomonning o'rni:

Oilada nizolarni hal etishning ko'pgina samarasi usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat qimmatbaho vaqtni olib tashlashi mumkin, balki oiladagi mojarolarni yanada kuchaytirishi mumkin. Oiladagi ziddiyatlarni bartaraf etish uchun uchinchi tomonning o'rni juda ham muhim hisoblanadi. Bunda tegishli tashkilotlar, yaqin qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Farzand tarbiyasidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan samarali usullar.

Bunda muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda avvalombor ota-onalarning bir-birilarini yanada yaqiroq bilib, tanishib, bir-birlarining salbiy va ijobiy xususiyatlarini o'rganib borish, bir-birlariga farzandlari muammolarini tushuntira bilish, muammolarni hal etish borasida hamkorlik qilish kabi oilaviy hayot mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiluvchi jarayonlar amalga oshadi. Boshqacha qilib aytganda "Bir farzandga yetti mahalla ota-ona" kabi iboralar toifasiga kiradi.

Xulosa o'rnida shuni aniq aytish lozimki bugungi kunda farzand tarbiyasida yuzaga keladigan muammolarni kelib chiqish sabablari bevosita yoshlarimiz o'rtasida erta oila qurishligi, hamda yoshlarimizda oila anima ekanligini to'laqonli anglab yetmasligi va ularda ham diniy ham dunyoviy bilimlar ko'nikmalarni oldini olish uchun bevosita tegishli tashkilotlar hamkorlikda yoshlar bilan oila maslahatlarida davra suhbatlarini doimiy ravishda o'tkazilishi kerak. Natijada farzand tarbiyasidagi muammolarni oldini olish va kamaytirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 01.05.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi oila kodeksi: 2020-yil
3. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – Toshkent: O'zbekiston 2021
4. A. Avloniy. "Turkiy guliston yohud axloq". T., "O'qituvchi". 1994
5. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., "Aloqachi", 2007
6. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., "Aloqachi", 2007